

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 186 (1247), 2024-yil 13-sentabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-sentabr kuni Turkiya Respublikasining tashqi ishlar vaziri Hakan Fidan, ichki ishlar vaziri Ali Yerlikaya va Milliy razvedka xizmati direktori Ibrohim Qalindan iborat delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmonlar davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdilar.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil 6-7-iyun kunlari Turkiyaga qilingan rasmiy tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash va

kor‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Bugun ikki davlat vazirlari va idoralari rahbarlari o‘tkazgan qo‘shma uchrashuvning samarali natijalari yuqori baholandi. Qabul qilingan “yo‘l xaritasi”ga muvofiq muntazam va tizimli aloqalarni davom ettirish, bunday muzokaralar formati va kun tartibini kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy ham-

korlik loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama etildi. Xavfsizlikka zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va qo‘shma tadbirlar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mintaqaviy hamkorlik va xalqaro tashkilotlar doirasidagi sheriklikning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

BUYUK QOMUSIY OLIM VA MASHHUR DAVLAT ARBOBI MIRZO ULUG‘BEK TAVALLUDINING 630 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbek xalqining buyuk qomusiy olimi, Temuriylar davlatining mashhur hukmdori Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek o‘zining boy ilmiy-ma‘rifiy merosi hamda mislsiz bunyodkorlik faoliyati bilan yurtimiz taraqqiyoti va jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulkan tarixiy siymodir.

O‘rta asrlarda ona zaminimizda yuzaga kelgan ikkinchi Uyg‘onish davrining yorqin namoyandasi hisoblangan Mirzo Ulug‘bek uzoq yillar o‘z saltanatini adolat va insonparvarlik g‘oyalari asosida boshqarish va keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish bilan birga ilm-fan, madaniyat va san‘at sohalari yuksaltirishga alohida e’tibor qaratdi. Uning tashabbusi va homiyligi ostida ko‘plab madrasalar, maktablar, kutubxonalar, masjidlar, karvonsaroylar, ko‘priklar hamda so‘lim bog‘lar barpo etildi. Natijada o‘lkamiz har tomonlama taraqqiy etib, Sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan diyoriga aylandi.

Mirzo Ulug‘bek matematika, fizika, tarix, me‘morchilik sohalarida ulkan natijalarni qo‘lga kiritdi. Buyuk alloma, ayniqsa, Samarqand shahridagi o‘zi bunyod ettirgan rasadxonada amalga oshirgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlari va kashfiyotlari bilan jahon astronomiya fanining rivojida tub birilish yasadi. Ulug‘ vatandoshimizning ana shunday izlanishlari natijasida yuzaga kelgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari hozirgi paytda ham yulduzlar ilmi sohasida dunyodagi eng buyuk asarlardan biri sifatida e’tirof etilib,

olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish va ommalashtirish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Uning davrida bunyod etilgan me‘moriy obidalarini asrab-avaylashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi ko‘plab aholi yashash maskanlari, ta’lim muassasalari, poytaxtimizdagi yirik tuman Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Mamlakatimiz va xorijda olimning muazzam haykallari o‘rnatilgan.

Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mazmun-mohiyatini, ularning yosh avlod intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish va shu asosda Yangi O‘zbekistonning munosib bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma‘rifiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand viloyati hokimligi hamda keng jamoatchilikning 2024-yilda Samarqand shahrida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha

tashkiliy qo‘mita ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov):

a) bir hafta muddatda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini nishonlash bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini mas’ul ijrochilar va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda tasdiqlasin;

mamlakatimizdagi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq obyektlarni, shu jumladan, Mirzo Ulug‘bek sharafiga barpo etilgan yodgorlik majmualarini mukammal ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish;

alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo‘lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli saqlash uchun zarur sharoit yaratish;

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligiga bag‘ishlab “Jahon tamadduni rivojida Mirzo Ulug‘bek ilmiy-ma‘rifiy merosining o‘rni va ahamiyati” mavzusida ilmiy-adabiy tadbirlar o‘tkazish;

davlat teatrlari va talabalar teatru-studiyalarida Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga oid spektakllar sahnalashtirish;

Mirzo Ulug‘bekning boy merosini o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, shu mavzuda ilmiy, badiiy-publististik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini o‘zbek tilida nashr qilish;

▶ Davomi 2-beta

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

PARIJ SHAHRIDA BO‘LIB O‘TGAN XVII YOZGI PARALIMPIYA O‘YINLARIDA YUKSAK NATIJALARGA ERISHGAN SPORTCHI VA MURABBIYLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xalqimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish borasidagi alohida xizmatlari, ko‘plab nufuzli xalqaro musobaqalarda ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani, xususan, Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida o‘zining azmu shijoati va mahorati, mustahkam iroda va jasoratini namoyon etib, Vatanimiz tarixida mislsiz natijalarga erishgani, terma jamoamiz safida muvaffaqiyatli qatnashib, Yangi O‘zbekistonning jahon miqyosidagi shon-shuhratini yuksaltirishga salmoqli hissa qo‘shgani hamda yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik, sabot-matonat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ibratli faoliyati uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni bilan

Yo‘ldashev Tolibboy Tojiboy o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Qurbanova Nurxon G‘ulomjon qizi — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Ma‘rufxo‘jayev Qudratilloxon Oxunjon o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Mirzayorova Asila Ubaydulla qizi — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Odilov Yorqinbek Olimbek o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Sultonov Elbek Ulash o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Toshmirov Asadbek Umar o‘g‘li — Taekvondo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni bilan

Namozov Sherzod Nasimovich — Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Omonov Bobirjon Zoirjon o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Ibragimov Server Yusufovich — O‘q otish bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Isaqova Ziyodaxon Abdug‘affor qizi — Taekvondo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Yigitaliyeva Shahinaxon Shokirjon qizi — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Naimova Guljonoy Abdullo qizi — Taekvondo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Saliyev Donyor Nurulla o‘g‘li — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Xakimova Kubaro Orifovna — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

Xodjayeva Kumushxon Saydullo qizi — Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a‘zosi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustози” faxriy unvoni bilan

Amonov Mahmud Mirzoyevich — Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Umirzoqov Fazliddin Abdulboqiyevich — Pauerlifting bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Xodjamov Raxmonberdi Djumaboyevich — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Xudayberganov Sardor Kamilovich — Yengil atletika bo‘yicha O‘zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

▶ Davomi 2-beta



XALQARO FORUM

Qadim kent, ochiq osmon ostidagi muzey — Xiva shahrida Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumi o‘z ishini boshladi. Unda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston parlamentlari rahbarlari va delegatsiyalari, jumladan, yoshlar parlamenti va guruhlari, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari mas‘ullari ishtirok etmoqda.

BIR MUSHT BO‘LIB JIPSLASHAYOTGAN MINTAQA

Bunda parlamentlararo hamkorlik ham muhim o‘rin egallayapti

Forum avvalida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tadbiri ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o‘qib eshittirdi.

Xalqimizda qo‘shnining haqqi, degan tushuncha bor. Bu haq faqat tansiq taom ulashishdan iborat emas. Uning qamrovi ancha keng. Ya‘ni inson o‘ziga nimani ravo ko‘rsa, farzandiga qanday mehr va tarbiya bersa, qo‘shnisiga ham xuddi shunday munosabatda bo‘ladi, degani. Shuning uchun ham uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni afzal ko‘riladi. Nimagaki, sinovli kunlarda ham, to‘y va bazmlarda ham, avvalo, qo‘shnilar ko‘makka yetib keladi. Shu ma’noda kun sayin dunyo qiyofasi, geosiyosiy jarayonlar o‘zgarib borayotgan hozirgi davrda yaqin qo‘shnichilik munosabatlari juda muhim.

▶ Davomi 3-beta



Nuqtayi nazar

KREATIV IQTISODIYOT

U nimasi bilan afzal?

4



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

PARIJ SHAHRIDA BO'LIB O'TGAN XVII YOZGI PARALIMPIYA O'YINLARIDA YUKSAK NATIJALARGA ERISHGAN SPORTCHI VA MURABBIYLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

Yusupov Ibroximjon Abdumutal o'g'li — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Yakubov Yaxyobek Sobitaliyevich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

“Fidorokona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Norbekov Xusniddin Kilichboyevich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Burxonova Safiya Kaimovna — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Kuziyeva Ro'za Rashidovna — Pauerlifting bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Tashxodjayev Muxtorxon Maxsudovich — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi raisi

Abdulkolov Sardor Abdulkolovich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Qo'ziyev Bobur Sobirovich — Taekvondo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Xaydarov Mavlombek Muxtorovich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

“Do'stlik” ordeni bilan

Axmedov Farrux Xurshidovich — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi bosh kotibi

Amilov Ravshanbek Kabildjanovich — Suzish bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Dusumbetov Muratboy Shamuratovich — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Yefimova Natalya Alekseyevna — O'q otish bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Ibragimova Alfiya Gilasdinovna — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Kamulya Grigoriy Georgiyevich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Normatov Azizjon Muratovich — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

“Jasorat” medali bilan

G'iyazov Temurbek Maxamadjon o'g'li — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Karomatov Davurxon Fozil o'g'li — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Qurbanbayev Uchqun Umirbekovich — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Odilova Muslima Ulug'bek qizi — Suzish bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Xamdamova Moxigul Kabayor qizi — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

“Shuhrat” medali bilan

Kazakova Galina Mixaylovna — Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Karamatov Fozil Avliyevich — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi murabbiysi

Abdiyev Turg'un Ibrahimoich — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Agzamova Lola Saidabbasovna — O'zbekiston dzyudo federatsiyasi psixologi

Amriyeva Uljon Qaxromon qizi — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Mamadaliyeva Shaxzoda Adxamjon qizi — Kano bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Mamatxanov Muso Nusratullayevich — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasining paralimpiya sport turlarini rivojlantirish departamenti yetakchi mutaxassisi

Mamedov Shoxruh Qo'ysin o'g'li — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

Turgunov Xusan Xalmatovich — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasining sport tibbiyoti bo'limi massajchi-mutaxassisi

Tursunova Nilufar Miralisherovna — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasining xalqaro aloqalar va marketing bo'limi boshlig'i

Xasanov Umid Xasanovich — O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasining sport tibbiyoti bo'limi boshlig'i

Ergasheva Feruza Baxtiyorovna — Dzyudo bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

BUYUK QOMUSIY OLIM VA MASHHUR DAVLAT ARBOBI MIRZO ULUG'BEK TAVALLUDINING 630 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

Mirzo Ulug'bek siyosiy tasvirlangan, uning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va allomaning ilmiy-ma'rifiy merosiga bag'ishlangan ko'rgazmali axborot vositalarini tayyorlash, media mahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalarini, o'zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Mirzo Ulug'bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati va ilmiy-ma'rifiy merosi, uning insonparvarlik g'oyalari keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida ilmiy anjumanlar va davra suhbatlari tashkil etish;

b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Samarqand viloyati hokimligi tomonidan Samarqand shahrida 2024-yil 10-11-oktabr kunlari “Mirzo Ulug'bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazilishini tashkil etsin. Bunda xalqaro konferensiya o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Samarqand viloyati hokimligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan teng ulushda qoplanadi.

4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini tadqiq etishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha davlat buyurtmasi

talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovi e'lon qilsin;

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan allomaning “Ziji jaddi Ko'ragoniy” asarini o'zbek, rus va ingliz tillarida, “To'rt ulus tarixi” nomli tarixiy asarining o'zbek tiliga tarjimasi qayta nashr qilinishini tashkil etsin;

Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar tanlovi o'tkazsin.

5. Fanlar akademiyasi 2024-yil oktabr oyida:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida Mirzo Ulug'bek asarlari nashringan taqdimotlarini o'tkazsin;

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Mirzo Ulug'bek davriga oid asarlar qo'lyozmalarining ko'rgazmasini tashkil etsin;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media birlashmasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda Mirzo Ulug'bek haqida yaratilgan “Osmon toliga qo'yilgan narvon” nomli hujjati film taqdimotini uyushtirsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fanlar akademiyasi,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2024-yil 12-sentabr

Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar Mirzo Ulug'bekning hayoti, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati hamda jahon ilm-fani va tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida, shuningdek, ta'lim tashkilotlari va mehnat jamoalarida keng targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish choralari o'tkazsin.

7. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarga ajratilgan byudjet mablag'lari, ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqabllanmagan boshqa manbalardan hisobidan amalga oshirilishi belgilansin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

SH. MIRZIYOEV

Sharh

SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mamlakatimizda Konstitutsiyaga muvofiq, aholining barcha qatamlari, shu jumladan, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning huquq va erkinliklari himoya qilinadi va kafolatlanadi. Bu borada mahkumlarning huquqlari ham davlatning sud-huquq sohasidagi siyosati e'tiborida, buning isboti qonunchilikni takomillashtirish jarayonida ham o'z aksini topadi.

Konstitutsiyaning 128-moddasiga ko'ra, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Bundan boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini cheklashga yo'ql o'g'ir yilmaydi.

Prezidentimiz joriy yil 28-avgust kuni “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni imzoladi.

Unga ko'ra, agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O'zbekiston Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovlari hamda referendumda ishtirok etish huquqidan qonunga muvofiq va sudning hukmi asosida mahrum etilgan



Komron NIGMATOV, Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti sho'ba mudiri

bo'lmasa, ular mazkur saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini mustahkamlandi.

Mazkur normalar milliy huquq uchun mutlaqo yangi normalar hisoblanadi. Sababi, eski tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga (1992-yil) ko'ra, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etib, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok eta olmagani.

Kiritilgan o'zgartirishlarning yana bir e'tiborli jihati shundaki, normada mahkumlarning saylovda ishtirok etish huquqi 2 ta muhim shart bilan himoyalangan.

Birinchi, saylovda ishtirok etish huquqi faqatgina qonunda belgilangan hollarda cheklanishi mumkin. Masalan, kelajakda yangi qonun qabul qilish orqaligina aniq bir turdagi jinoyatni (masalan, tinchlikka qarshi jinoyatlar) sodir etgan shaxslarning saylov huquqi cheklanishi mumkin. Shuningdek, qonunosti hujjatlar, masalan, turli davlat hokimiyati organlarining qarorlari, boshqa idoraviy hujjatlar bilan mahkumlarning saylov huquqi cheklanishi mumkin emas.

Ikkinchi kafolat esa bevosita huquq idoraviy hujjatlar bilan mahkumlarning saylov huquqi cheklanishi mumkin emas. Ikkinchisi kafolat esa bevosita huquq va qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovlari hamda referendumda ishtirok etish huquqidan qonunga muvofiq va sudning hukmi asosida mahrum etilgan

MILLAT INSONIYLIGI

endi mahkumlar saylovlarda ishtirok eta oladi

etgani uchun ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Mazkur masala sudlar tomonidan belgilangan tartibda chuqur o'rganish asosida, sinchkovlik va individual tarzda hal etiladi.

Yangi qabul qilingan qonun normasining yana bir nozik va muhim jihati shuki, unda og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan va bu uchun aynan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning huquqlari cheklanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bunda xuddi shunday og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan, biroq jazoni ijro etish (shu jumladan, davolash, tarbiya) koloniyalari, turalar va mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalarda saqlanayotgan mahkumlarning saylovda ishtirok etish huquqi cheklanmaydi. Sodda qilib aytganda, misol uchun, shaxs garchi o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'lsa-da, ammo axloq tuzatish ishlari

hal etishda maksimal ravishda tor doiradagi shaxslarni qamrab olishga harakat qilgan.

Chetdan qaraganda, shunchaki demokratik davlatga xos bo'lgan shaxsning navbatdagi huquqi davlat tomonidan kafolatlangandek fikr tug'ilishi va bu qonunchiligimizda “kafolatlanishi shart bo'lgan huquqdek” ko'rinishi mumkin. Aslida, bunday emas va mazkur saylov huquqi chuqur fundamental va falsafiy masalalarga borib taqaladi. Shuningdek, bu borada davlatlarning ham turlicha yondashuvlari mavjud, O'zbekiston bu yo'nalishda eng rivojlangan ayrim davlatlardan ham ilg'orlik kengayirganing guvohi bo'lishimiz mumkin.

Masalan, qiziq fakt, inson huquqlari sohasidagi eng asosiy hujjat — 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi yoki Yevropa uchun eng asosiy hujjat — 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy

jumladan, saylash va saylanish huquqlariga ega bo'lish yoki ega bo'lmasligi masalasi huquqshunos va faylasuflar o'rtasida doimo bahs-munozara predmeti bo'lib kelgan. Jumladan, mashhur ingliz olimi Djon Lokk jinoyatchi saylov huquqiga ega bo'lmasligi tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, garchi inson huquqlari o'z tabiatiga ko'ra mavjud bo'lsa-da, samarali boshqariladigan davlatni shakllantirish uchun fuqarolar davlat bilan ijtimoiy shartnoma tuzishi kerak bo'ladi. Mazkur shartnoma ayrim tabiiy huquqlarga nisbatan cheklovlarini belgilay oladi. Olimning ta'kidlashicha, jinoyatchi o'z kelib chiqishiga ko'ra, bunday shartnomaga umuman aloqasi bo'lmaydi.

Xorijiy tajribani tahlil qilsak, Angliya va Irlandiya, shuningdek, AQSHning barcha shtatlari (Men va Vermontdan tashqari)da og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar saylovda qatnashish va ovoz berish huquqiga ega emasligini kuzatamiz. Xuddi shunday Rossiyada ham ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar saylov huquqidan mahrum qilingan.

Xo'sh, nima uchun bunday rivojlangan davlatlarda mahkumlarning saylov huquqi cheklangan bo'lsa-da, O'zbekistonda hayotda qoqilgan, bilib-bilmay jinoyat sodir etgan shaxslarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, ular uchun hattoki saylovda ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda?

Bunda gap o'zbek xalqining kechirimlilikiga ham emas, balki millatning insoniyligi bilan bog'liq. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxs ham, avvalo, inson, u ham kim uchundir ota yoki ona, farzand yoki aka-singil maqomidagi shaxsdir. Jinoyat sodir etishi uni inson toifasidan boshqa mavjudot turiga aylantirib qo'yilmaydi. U hanuz har tomonlama O'zbekiston fuqarosi, jamiyat bir bo'lagining a'zosi bo'lib qoladi. Boshqa fuqarolar kabi barcha yuridik huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi, faqatgina erkinlik huquqi ma'lum muddatga cheklanadi. Uning ozodlikdan mahrum etilishi esa boshqa bir muhim tamoyil javobgarlikning muqarrarligini so'zsiz ta'minlash, uni axloqdan tuzatish va kelajakda yana jinoyat sodir etilishining oldini olish hisoblanadi. Ya'ni inson Jinoyat kodeksida belgilangan jazoni o'tash uchun emas, balki qilgan qilmishiga yarasha jazo olgani uchun ozodlikdan mahrum etiladi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati shaxslarni ozodlikdan mahrum etish tushunchasi borasida o'rta asrlarga xos bo'lgan stereotip va yondashuvdan voz kechgan. Endilikda mahkumlar, garchi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir qilgan bo'lsa ham saylovda ishtirok etish huquqidan shunchaki mahrum qilinmaydi. Konstitutsiyamizda belgilangan insonparvar demokratik davlatda har qanday shaxsning ovozi muhim va bu huquq Asosiy qonun bilan qo'riqlanadi.

jazosini o'tayotgan bo'lsa, uning saylovda ishtirok etish huquqi hech qanday holatda cheklanilmaydi.

Bundan tashqari, tergov hibsonalari yoki izolyatorlarida saqlanayotgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar ham yuqoridagi norma doirasiga tushmaydi va ularning saylovda ishtirok etish huquqi hech qaysi holatda cheklanishiga yo'ql o'g'ir yilmaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya va qonun saylov huquqidan mahrum qilish masalasini

erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida saylov huquqiga oid kafolatlar belgilanmagan. To'g'ri, keyinchalik 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt va Yevropa Konvensiyasiga 1952-yilda kiritilgan bayonnomalarda mazkur huquq oxir-oqibat o'z aksini topdi. Lekin nima uchun ushbu hujjatlarida saylov huquqi belgilanmagan va bu narsa tasodif yoki tasodif emasligi kishini o'ylantirishi aniq. Mahkumlarning siyosiy huquqlarga,

XALQARO FORUM

BIR MUSHT BO‘LIB JIPSLASHAYOTGAN MINTAQQA

Bunda parlamentlararo hamkorlik ham muhim o‘rin egallayapti

Markaziy Osiyo mamlakatlari nafaqat qo‘shni, balki tarixi, qadriyatleri, urf-odatleri umumiy bo‘lgan qardosh xalqlar hisoblanadi. Ayni jihat do‘stlik, ishonchli hamkorlik nisbiylik kasb etayotgan hozirgi zamonda yanada ahamiyatli. Zero, mintaqa davlatlarining taraqqiyoti Markaziy Osiyo barqarorligi va farovonligiga bog‘liq. Buni so‘nggi yillarda mamlakatimizdagi yaxshi va yaqin qo‘shnichilik borasidagi islohotlar va ularning natijalari ham isbotlaydi.

Dastlab, chegara, transport, suv resurslari, savdo sohalari bir qator ziddiyatlarni bartaraf etishga jiddiy e‘tibor berildi. Iqtisodiy hamkorliklar, madaniy-gumanitar aloqalar yanada mustahkamlandi. Shu tariqa “Markaziy Osiyo ruhi” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Dunyo arenasiga chiqqan sportchilarimizni mintaqa xalqlari bir bo‘lib qo‘llab-quvvatlashi “Markaziy Osiyo ruhi” amaliy ko‘rinish olganini isbotladi. Shuning o‘ziyoq islohotlar samarasi qanchalik chuqur ildiz etayotganini ko‘rsatdi.

Shu o‘rinda kichik ma‘lumot: bugun mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayohlarning 80 foizga yaqini qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur raqam xalqlarimiz bir-biri bilan faol aloqada ekanini ko‘rsatadi. Ha, qo‘shni va qardosh davlatlar aholisi qadim Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarimiz ziyoratiga kelmoqda. O‘z o‘rnida, biz ham Turkiston tuprog‘ini aziz aylagan Yassaviy bobomiz ziyoratiga, go‘zal va betakror tog‘lari, ko‘llari bilan ajralib turadigan tojik va qirg‘iz birodarlarimiz mehmoni bo‘lyapmiz.

Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumi mamlakatlarimiz

o‘rtasidagi mana shunday aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Undan parlamentlararo aloqalarni mustahkamlashdek maqsad ko‘zlangan. Qolaversa, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda parlamentlararo komissiyalar, do‘stlik guruhlari, davlat hokimiyati vakillik organlari, yoshlar parlamentlari hamda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirishga ham alohida e‘tibor berilgan.

Shundan kelib chiqib, forumda O‘zbekiston parlamenti tomonidan bir qancha tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, mamlakatlarimiz qonunchiliklarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha parlamentlar faoliyati muvofiqlashtirilishi kerak. Bu orqali qonunlarimiz bir-biriga zid bo‘lmashiga erishiladi. Ha, islohotlar huquqiy asosga ega bo‘lsagina, amaliy qiyofa kasb etadi. Bunda parlamentlararo guruh va komissiyalarning o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Demak, Markaziy Osiyo davlatlarining qonunlari ham uyg‘un bo‘lishi shart. Shu bois, O‘zbekiston parlamenti aynan shu masalani kun tartibiga qo‘ydi.

Albatta, huquqiy asosga ega hamkorlik, do‘stona aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilayotgani quvonarli. Chunki bunday faol hamkorlik ortidan katta va jiddiy kelishuvlarga erishilmoqda. Natija ham shunga yarasha. Birgina misol, keyingi vaqtlarda **mintaqadagi savdo hajmi 4,4**



barobar, qo‘shma korxonalar soni 5 barobar, o‘zaro investitsiyalar hajmi qariyb 2 barobar oshgan.

Ha, “Markaziy Osiyo ruhi” o‘z-o‘zidan paydo bo‘layotgani yo‘q. Buni birlashuv natijasida erishilgan iqtisodiy o‘shida ham ko‘rish mumkin. Masalan, mintaqa mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti 450

milliard dollarga yaqinlashdi. Ya‘ni mintaqaning o‘shish sur‘atlari 4,8 foizni tashkil qilib, butun dunyoning o‘rtacha o‘shidan deyarli ikki barobar yuqori ko‘rsatkichga erishdi. Demak, kelishuvlar doirasida ko‘rsatilgan ishlar o‘z vaqtida, bekamu-ko‘st bajarilishda davom etsa, natijalar bundan ham yuksak bo‘ladi.

Shu maqsadda parlamentimiz oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosini ta‘minlash ustidan parlament nazoratini olib borishda uzviy hamkorlik tashabbusini ilgari surdi. Bunda mas‘ul qo‘mitalar, parlament apparatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalardan foydalanish zarurati ta‘kidlandi. Bundan tashqari, parlamentlar

darajasidagi hamkorlik hududlardagi vakillik organlari darajasiga ham tushishi, parlamentlararo hamkorlikda ayollar faolligini oshirish kabi qator masalalar kun tartibiga qo‘yildi.

Forumdagi qo‘yilgan masalalar to‘rtta sessiya doirasida ko‘rib chiqildi. Dastlab, Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlararo komissiyalari va do‘stlik guruhlarning mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi faoliyatini yanada kuchaytirish mavzusi o‘rganildi. So‘ng hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda Markaziy Osiyo mamlakatlari mahalliy hokimiyat vakillik organlarining o‘zaro hamkorligini kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi. Uchinchi sessiyada, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda parlamentlar ayol a‘zolarining faol ishtirokini oshirish muhokama qilindi. Nihoyat, so‘nggi sessiya ishida “Yosh avlodning parlamentdagi ovozi: mintaqani barqaror rivojlantirish uchun yangi tashabbus va loyihalar” mavzusi doirasida tomonlarning fikrlariga quloq tutildi. Yangi tashabbuslar ilgari surildi. Yakunda ko‘rilgan mavzular, ilgari surilgan taklif va tashabbuslar asosida Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi.

Parlamentlararo forum ishtirokchilari fikri bilan qiziqdik.

Tanzila NORBOYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlis Senati Raisi:

— Hozir Markaziy Osiyo mamlakatlarida umumiy qarash shakllanmoqda. Ya‘ni mintaqa taraqqiyoti, xavfsizligi hamda farovonligi bo‘linmasdir va umumiy taqdirga ega. Zero, madaniyati, urf-odati va an‘analari, qadriyatleri bir bo‘lgan xalqlarda do‘stlik va hamkorlikdan boshqa yo‘l ham mavjud emas.

Mintaqamizda qayd etilgan natijalar, shubhasiz, davlatlarimiz rahbarlarining o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa‘y-harakatlari tufayli ro‘y bermoqda. Shu bilan birga, oliy darajada erishilayotgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish, hamkorlik formatlarini yanada rivojlantirishda parlamentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, 2022-yilda Prezidentlarimiz ilgari surgan tashabbus orqali Markaziy Osiyo davlatlari Parlamentlararo forumi yo‘lga qo‘yildi.

Biz, parlament rahbarlari o‘rtasidagi aloqalar ham muntazam tus olmoqda. Uchrashuvlar, o‘zaro tashriflar soni ortmoqda. Endigi vazifamiz mana shu tarixiy hamkorlik salohiyatini to‘la ishga solishdan iborat. Davlatlarimiz rahbarlari sa‘y-



harakatlari natijasida bugun parlamentlarimiz hamkorligidagi yangi sahifa ochilmoqda. Tarixda bugungi darajadagi aloqalar kuzatilmagan. Xivada o‘tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlarining ikkinchi parlamentlararo forumida ko‘rilayotgan masalalar, erishilayotgan kelishuvlar fikrimizni tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, biz xalqlarimiz, mamlakatlarning umumiy manfaatidan kelib chiqib, o‘zaro aloqalarning istiqbolini belgilab oldik. Zero, mintaqaning hamma davlatlari o‘z taraqqiyotini bevosita Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va farovonligiga uzviy bog‘liq holda ko‘radi.



Maulen ASHIMBAYEV,
Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti
Senati Raisi:

— Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga ushbu forumni qo‘llab-quvvatlab, bizga samimiy qulov yo‘llagan va unda mintaqada xalqaro hamkorlik borasidagi muhim fikrlari uchun minnatdorlik bildiraman.

Bugungi uchrashuvimiz Xorazm vohasining durdonasi bo‘lgan qadimiy go‘zal Xivada bo‘lib o‘tmoqda. Bu shahar nafaqat Islom sivilizatsiyasining eng muhim markazlaridan biri, balki umumiy madaniy va tarixiy merosimiz ramzidir. Shu ma‘noda forumning Xivada tashkil etilishida ham ramziy ma‘no bor. Qadimdan sivilizatsiya chorrahasi bo‘lgan Xiva bugun ham muloqot, o‘zaro hamkorlik zarur ekanini eslatmoqda, go‘yo.

Parlamentlararo muloqot Markaziy Osiyoda do‘stlik, hamkorlik aloqalarimizni yanada rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shadi. Avvalgi forumda qabul qilingan Turkiston deklaratsiyasi parlamentlararo



aloqalarni mustahkamlashga asos yaratdi. Xivadagi forumda bu yangi bosqichga ko‘tarilishiga ishonaman.

Ta‘kidlash kerak, mintaqa mamlakatlari oldida hal etilishi kutilayotgan bir qator masalalar bor. Jumladan, keskin geosiyosiy jarayonlar, iqtisodiy beqarorlik va ekologik tahdidlar bizdan umumiy yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Zero, vazifamiz mamlakatlarimizning integratsiyalashgan rivojlanish modelini shakllantirish, shu orqali Markaziy Osiyo aholisining turmush darajasini yaxshilashdir. Parlamentlar ushbu maqsadga erishish uchun huquqiy bazani yaratib berish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Markaziy Osiyo jadal rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega mintaqadir. Bilamizki, davlatlarning tashqi siyosatini diplomatiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Parlament diplomatiyasi bu yo‘nalishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Nurlanbek SHAKIYEV,
Qirg‘iz Respublikasi
Jogorku Keneshi Topag‘aci:

— Bugungi noyob platformamiz dolzarb masalalarni muhokama qilish, parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish va kengaytirish borasida muhim voqea bo‘ldi. Chunki Markaziy Osiyo mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda parlamentlarimizning o‘mi haqida fikr almashish uchun yana bir yaxshi imkoniyat yaratildi.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo jadal rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega mintaqadir. Bilamizki, davlatlarning tashqi siyosatini diplomatiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Parlament diplomatiyasi bu yo‘nalishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Vaqt ko‘rsatganidek, parlamentlararo muloqotning rivojlanishi va kengayishi do‘stlik, ishonch va xalqaro sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xalqimizning “Birlamlik — muvaffaqiyatning boshlanishi”, degan mazmunda hikmati



bor. Demak, bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari birlashib, yangi marralarni zabt etadigan fursat keldi.

Istardimki, biz mamlakatlarimizning yutuqlaridan xursand bo‘lishimiz va har doim bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak. Ana shunday aloqalarni mustahkamlashga zamin yaratgan forumni yuqori saviyada o‘tkazayotgani uchun O‘zbekiston rahbariga va hurmatli hamkasblarimga minnatdorlik bildiraman.

Biz xalqlarimiz, mamlakatlarning umumiy manfaatidan kelib chiqib, o‘zaro aloqalarning istiqbolini belgilab oldik. Zero, mintaqaning hamma davlatlari o‘z taraqqiyotini bevosita Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va farovonligiga uzviy bog‘liq holda ko‘radi.

Guvanchmirad AGAYEV,
Turkmaniston Mejlisi
Iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi:

— Xalqlarimizni azaldan tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, birodarlik va hamkorlik munosabatlari mustahkam bog‘lab kelgan. Hozir dunyodagi murakkab vaziyatda tinchlik, barqarorlikni va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini himoya qilish Markaziy Osiyo davlatlarining ustuvor vazifasidir.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari samarali kechmoqda. Natijada mintaqa mamlakatlari va xalqlari o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, hamkorlikni rivojlantirish uchun samarali maydon paydo bo‘ldi.

Bugun Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi transport aloqalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlarimiz hududida zamonaviy logistika yaratish kerak. Buning uchun esa qonunlarimiz uyg‘un bo‘lishi lozim. Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro hamkorlikda bo‘xona, narx va boshqa imtiyozlar berishni talab qiladi. Forum doirasida boshlangan aloqalarimiz kelgusida mana shunday yirik hamkorliklarga zamin yaratishiga ishonaman.



Mahmadtoir ZOKIRZODA,
Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi
Namoyandagon majlisi Raisi:

— Avvalo, O‘zbekiston tomoniga yuqori saviyada tashkil etilgan forum uchun minnatdorlik bildiraman. O‘z navbatida, mintaqadagi hamkorlikning rivojlanishi davlatlarimiz rahbarlarining o‘zaro siyosiy irodasi natijasida ro‘y berayotganini ta‘kidlash kerak.

Xivadagi forum navbatdagi kelishuvlar, zamonaviy tendensiyalar asosidagi hamkorlikning yangi bosqichiga xizmat qiladigan natijalarga boy bo‘ldi. Bu albatta, barchamizni birdek quvontiradi. Chunki hozirgi davrda do‘st va birodarlik aloqalari har doimgidan ham muhim. Shuni inobatga olgan holda, Tojikiston parlamenti qonunchilik organlari o‘rtasidagi barcha yo‘nalishlardagi hamkorlikni yanada kengaytirishga tayyor ekanini ta‘kidlamochim. Ayniqsa, Tojikiston uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish, energetika, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash kabi yo‘nalishlarda hamkorlikni kuchaytirishi dolzarb ahamiyatga ega ekanini aytib o‘tish lozim.

Umid qilamanki, Xivada qabul qilingan deklaratsiya kelgusi hamkorligimiz uchun muhim tarixiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.



Muxtar aytganda, bugun Markaziy Osiyo bir musht bo‘lib, olg‘a siljiyapti. Yuqorida aytilganidek, o‘tmishi, urf-odatleri bir bo‘lgan qardosh xalqlar qondoshlik, qo‘shnichilik kabi qadim qadriyatlariga tayanib ish ko‘rmoqda. Zero, bu hozirgidek siyosiy, iqtisodiy beqarorlik davrida ishonchli do‘stlikdagi qiyosi yo‘q ne‘matni tortiq etadi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimiz kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish borasida yuqori salohiyatga ega. Chunki bu zamandan o'z g'oyalari bilan dunyo tamadduniga, jahon ilm-fani va madaniyatiga benazir hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Marg'inoniy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlar, allomalar yetishib chiqqan.



KREATIV IQTISODIYOT

U nimasi bilan afzal?

Dunyoda intellektual mehnat, innovatsion yechimlar va kreativ g'oyalarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga e'tibor qaratayotgan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Ya'ni kreativ iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining eng rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanyapti.

KREATIV IQTISODIYOT MUVAFFAQIYATLI ISHLASHI UCHUN YETARLI MIQDORDA MOLIVAVIY RESURSLAR BO'LISHI KERAK. SHU BOIS, MAMLAKATIMIZDA MAZKUR TARMOQNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHGA ALOHIDA E'TIBOR BERILMOQDA. JUMLADAN, JORIY YILDA "KREATIV SANOAT PARKLARI"NI RIVOJLANTIRISH UCHUN 10 MILLION DOLLAR YO'NALTIRILISHI BELGILANGAN.



Jasurbek ATANIYAZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, intellektual salohiyati, iqtidori va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilayotganining boisi shunda. Iste'dodli, ijodkor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi keng ko'lamdagi hayotiy tashabbuslar jahon hamjamiyati nigohini O'zbekistonga qaratayotgani ham bor gap. Bu O'zbekiston yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida o'z yo'li va tashabbuslari orqali ayrim rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarga namuna bo'layotganini ko'rsatadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda bittadan "Kreativ park" tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming yoshni jalb qilish" kabi ustuvor maqsadlar belgilangan. Shunga ko'ra, jahonning ilg'or tajribalari, zamonaviy ijodiy va innovatsion yutuqlarini hayotga samarali tatbiq etishni hamda kreativ iqtisodiyot bo'yicha xalqaro miqyosda o'zaro fikr-mulohaza almashish hamda hamkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 23-avgustda davlatimiz rahbarining "Kreativ iqtisodiyot bo'yicha IV Butunjahon anjumanining Toshkent shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, joriy yil 2-4-oktabr kunlari mazkur yirik tadbir o'tkaziladi.

Prezidentimiz mustaqilligimizning o'tiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqida "Dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani inobatga olib, e'tiborimizni kreativ sohalarga qaratishimiz, ularni jadal rivojlantirishimiz zarur. Jahonda kreativ sanoat mahsulotlari eksportidan yiliga milliardlar dollar daromad topayotgan mamlakatlar ko'p. Binobarin, shunday mahsulot ishlab chiqarishga bel bog'lagan ijodkor ishlabarmonlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni har tomonlama rag'batlantirishimiz, deya alohida ta'kidli.

Darhaqiqat, dunyoda kreativ iqtisodiyot mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynamoqda. Kreativ iqtisodiyot musiqa, nashriyat, arxitektura, televideniye, san'at, madaniyat, dizayn, ommaviy axborot vositalari, reklama, moda, kino va ba'zi yuqori texnologiyali tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, madaniy va ijodiy sohalarda jahon yalpi ichki mahsulotining

3,1 foizini va dunyodagi bandlik darajasining 6,2 foizini tashkil qiladi. Kreativ iqtisodiyot tarmoqlari yiliga qariyb 2,5 trillion AQSH dollariga teng daromad keltiradi. Ushbu sohaning eksport qiymati 250 milliard dollarini tashkil etgan holda dunyo bo'ylab 50 millionga yaqin yangi ish o'rni yaratishga xizmat qiladi. Bu sohada 300 milliondan ortiq kishi band bo'lib, milliy iqtisodiyotlarda kreativ industriyaning ulushi yalpi ichki mahsulotning o'rtaacha 3-5 foizini tashkil qiladi. Unda ish bilan band bo'lganlarning yarmiga yaqini ayollar, boshqa sohalarga qaraganda, 15-29 yoshdagilar ko'proq faoliyat yuritadi. Joriy o'sish sur'atlari va ushbu sektorning dunyo iqtisodiyotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda kelgusi 10-15 yil ichida ushbu sektor jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Kreativ iqtisodiyot butun dunyo bo'ylab 16-29 yoshlilar uchun millionlab ish o'rni yaratadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektorda bandlikning ulushi sezilarli darajada tashkil etadi. Xususan, Yaponiyada mehnatga layoqatli aholining 10-14 foizi, Buyuk Britaniyada taxminan 10 foizi, Avstraliyada 8 foizi, Germaniyada 7 foizi, Fransiya va Koreya Respublikasida 4 foizi ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

Kreativ industriya jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmog'i bo'lib, qo'shilgan qiymatning salmoqli qismi ijodiy faoliyat va intellektual mulk huquqlarini boshqarish hisobiga shakllanadi. UNCTAD (BMT organi) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 20 yil ichida kreativ iqtisodiyot tovarlari va xizmatlari eksportining o'sish sur'ati ancha tezlashgan. 2023-yilgi Global innovatsiyalar indeksi (GI)ga ko'ra, 132 mamlakat ichida kreativ iqtisodiyot bo'yicha yetakchi beshlikka Shveysariya, Shvetsiya, AQSH, Buyuk Britaniya va Singapur kiradi.

Kreativ iqtisodiyot odamlarga o'z ijodkorlik va innovatsion salohiyatini namoyon etish, g'oyalarni aniq iqtisodiy qiymatga aylantirish uchun platforma sifatida xizmat qiladi. Xalqaro moliya korporatsiyasi ma'lumotlariga qaraganda, kreativ sohalarda muhim iqtisodiy multiplikator effekti ega bo'lib, unga sarflangan har bir dollar iqtisodiyot uchun 2,5 dollarga teng boyluk yaratadi. Yoshlar uchun bu iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri. Aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etuvchi O'zbekiston uchun esa ayni muddaodir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 1598 ta Axborot texnologiyalari markazi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ulardan 411 tasi xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan. Shuningdek, 100 dan ortiq dizayn markazi, 60 ta animatsiya markazi, 30 ta o'yinlar ishlab chiqish markazi

va 20 dan ortiq san'at galereyasi faoliyati yo'lga qo'yilgani yurtimizda yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon etishga muhim hissa qo'shmoqda.

Mamlakatimiz kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish borasida yuqori salohiyatga ega. Chunki bu zamandan o'z g'oyalari bilan dunyo tamadduniga, jahon ilm-fani va madaniyatiga benazir hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Marg'inoniy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlar, allomalar yetishib chiqqan.



Kreativ industriya rivojlanishining asosiy tendensiyalari tovarlar va xizmatlarning qo'shilgan qiymatida ijodiy faoliyat natijalari ulushini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni keng ko'lamlari joriy etishni o'z ichiga oladi. Shu bois, inson kapitali kreativ iqtisodiyotning asosiy resursi hisoblanadi.

AQSHda kreativ iqtisodiyot iqtisodiy o'sishda asosiy rol o'ynaydi. Gollivud, Silikon vodiysi, Nyu-York va Los-Anjeles yuqoridagi kreativ industriya markazlari hisoblanadi. Buyuk Britaniyada kreativ industriyada 2 milliondan ortiq kishi ishlaydi. Bu mamlakatdagi har bir yigirmanchi mehnatga layoqatli inson kreativ iqtisodiyotdagi faoliyat yuritadi, degani. Janubiy Koreya kreativ industriyani rivojlantirish maqsadida maxsus KOCCA kreativ agentligi faoliyatini yo'lga qo'ygan. Agentlik kreativ sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish va mamlakatda yaratilgan ijodiy mahsulotlarni xalqaro bozorga olib chiqish imkonini berdi. Janubiy Koreyada, shuningdek, madaniy, kino va teleko'rsatuvlar kabi kreativ sohalarni

rivojlantirishga katta miqdorda sarmoya kiritiladi. Ushbu mamlakat kreativ industriyasidan har yili qariyb 6 milliard dollarlik mahsulot eksport qiladi.

Qozog'istonda 2021-yil noyabr oyida 2021-2025-yillarda kreativ tarmoqlarni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Uning doirasida "Madaniyat to'g'risida"gi qonun va Tadbirkorlik kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu chora-tadbirlar san'at, dizayn va axborot texnologiyalari kabi sohalarda ishlayotgan odamlar va kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash uchun sharoit yaratadi.

Jahonda Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Gonkongda mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga kreativ sektorning ta'siri tobora ortib bormoqda. Ushbu davlatlardagi kreativ sektor iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va innovatsiyalarni yaratishning asosiy omili sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ularda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida soliq imtiyozlari, yuqori texnologiyali uskunalar bo'xona to'lovlarini kamaytirish, intellektual mulkni himoya qilish va chet elda tovar belgilarini ro'yxatdan

o'tkazishga ko'maklashish, yirik xalqaro ko'rgazma, festival va konferensiyalarni tashkil etish kabilar davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Ko'plab xorijiy yurtlarda kreativ iqtisodiyot ommaviy axborot vositalari, kino, musiqa, o'yin qurilmalari uchun ko'ngilochar dasturiy ta'minot, kompyuter o'yinlari, ilmiy tadqiqotlar va boshqa ijodiy sohalardan iborat bo'lib, ularda aholining salmoqli qismi faoliyat yuritadi.

Iqtisodiyotning ushbu sohasini yanada rivojlantirishning zaruriy sharti muayyan darajadagi iqtisodiy bilimlar mavjudligi va, birinchi navbatda, insonning ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirish, shuningdek, ijodkorlar sinfi shakllanishi hisoblanadi.

Yaqin-yaqingacha iqtisodiyot rivojiga bilimlar va axborot iqtisodiyoti sifatida urg'u berilgan bo'lsa, bugun bilimlar iqtisodiyoti yutuqlaridan foydalangan holda yangi g'oyalar va rejalarni amalga oshirishga asoslangan kreativ iqtisodiyot haqida ko'p ta'kidlanmoqda. Binobarin, kreativ iqtisodiyot, asosan, xizmat ko'rsatish sohasida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga olgan ijodkorlik sektori iqtisodiyoti hisoblanadi.

Uning rivojlanishi ijodiy fikrlaydigan xodimlar va ijodiy sohalarda faoliyat yurituvchi firmalar soni ko'payishiga chambarchas bog'liqdir.

Kreativ iqtisodiyot intellektual kapital hisoblangan cheklanmagan manba salohiyatiga asoslanadi. Insonlarning intellektual va kreativ imkoniyatlari tuganmas resurs bo'lib, iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. E-bayning ulkan muvaffaqiyatini eslaylik. Qisqa vaqt ichida u dunyodagi eng boy kompaniyalardan biriga aylandi, kompaniya muvaffaqiyatining asosi inson mehnati sifatida va moliyaviy kapital miqdori oshishiga, na yangi texnologiyalarga bog'liq edi. Mazkur holatda kompaniya muvaffaqiyatining eng muhim omili uning asoschilaridan birining kreativ g'oyasi bo'lgan.

Kreativlik rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi eng muhim omilga aylanib bormoqda. Chunki kreativlik

nomoddiy xususiyatga ega bo'lsa-da, yangi original g'oyalar tufayli qo'shimcha mehnat va kapital sarflanmay, ishlab chiqarish darajasini oshirishga imkon beradi.

Kreativ iqtisodiyotda inson qobiliyati va malakasiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqarish jarayonida ularga qo'yiladigan talablardan farq qiladi. Ya'ni ishlab chiqarish jarayoni odamlardan maxsus ijodiy qobiliyatni talab qilmaydi. Kreativ sektor esa, aksincha, aqlli g'oyalar bilan ishlaydi. Sohada faoliyat yurituvchi xodimlardan ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar, original yechimlar yaratish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun kreativ iqtisodiyotni shakllantirishda muhim o'rin tutadigan kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi asosiy talablardan biridir.

Uning taraqqiy etishiga xizmat qiluvchi navbatdagi muhim omil ijodiy maydon mavjudligidir. Uning ochiqligi ijodkor shaxslarga yangi g'oyalar yaratish imkonini beradi. Ijodiy muhit bag'rikeng qarashlari, madaniy qadriyatlarini, diniy e'tiqodini, muammolarni hal etishdagi yondashuvidan qat'i nazar, hammani qabul qila oladigan bo'lishi kerak. Aynan shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu tarmog'ini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishning muhim shartlaridan biri kreativ faoliyat uchun zaruriy infratuzilmani yaratishdir. Bu jarayonda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilib, uning asosida turli grantlar ajratiladi, loyihalar amalga oshiriladi, madaniy an'analari rivojlantiriladi, madaniy tadbirlar o'tkaziladi, xalq ijodiyoti sohasiga oid jamoat tuzilmalari, havaskorlar jamiyatlari qo'llab-quvvatlanadi.

Kreativ iqtisodiyot muvaffaqiyatli ishlab chiqarish uchun yetarli miqdorda moliyaviy resurslar bo'lishi kerak. Shu bois, mamlakatimizda mazkur tarmoqli davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, joriy yilda "Kreativ sanoat parklari"ni rivojlantirish uchun 10 million dollar yo'naltirishi belgilangan.

Ta'lim muassasalari va ularning kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlari borasidagi samarali faoliyati kreativ iqtisodiyot infratuzilmasining asosi va raqobat ustunligini muhim manbaidir. Oliy o'quv yurtlari intellektual kapital, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi yangi hodisa bo'lib, iqtisodiy o'sishning cheksiz resurslariga, insonning ijodkorlik qobiliyatiga asoslanadi. Yangi g'oyalar shakllanishida ijodkorlik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Yaratilgan ilmiy mahsulotlarni tijoratlashirish orqali ortiqcha mehnat va kapital jalb qilmasdan ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jarayon cheklanmagan g'oyalar va intellektual kapitalga asoslanadi. Uning natijasi esa qo'shilgan qiymatning o'sishiga va barqaror iqtisodiy taraqqiyotda namoyon bo'ladi.

Yangicha yondashuvlar

Qiziltepa tumani bejiz "tadbirkorlar manzili" deya ta'rif berishmaydi. Tashkil etilayotgan yangi ishlab chiqarish subyektlari mahsulotlar turfa xilligi va aholi bandligini ta'minlamoqda. Natijada joriy yilda hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 794,9 milliard so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,7 foizga yetgan. Shuningdek, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 trillion 512,5 milliard, qurilish sanoatida 684,3 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, chakana savdo aylanmasi 646,5, xizmatlar hajmi esa 559,1 milliard so'mni tashkil etgan. Qolaversa, mahsulotlarning eksport hajmi ham oshib bormoqda.

Tumandagi mavjud 4 ta sektor va 53 ta mahallada aholi muammolarini hal etish, bandligini ta'minlashda aynan tadbirkorlik sohasining rivojlanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fikrimizni raqamlar misolida tahlil etadigan bo'lsak, investitsiya loyihalari asosida 207, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikda 3125 ta, qishloq xo'jaligi yo'nalishida 5197 va qurilish sohasida 407 va boshqa yo'nalishlarda 1418 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, 10 mingdan ziyod fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlik tobora rivojlanib bormoqda. Xo'jaqo'rg'on mahallasi aholisi bu borada boshqa hududlarga namuna.



TADBIRKORLIK

BIR YO'NALISHDA ISH YURITISH DEGANI EMAS

Ushbu mahallada istiqomat qiluvchi Amanboy To'xtameshovning tunuka ishlab chiqarish sexida ko'plab mahalliy aholi band. Bu kabi ishlar zamirida yurtimizda tadbirkorlikka ochib berilgan keng yo'l va yaratilgan imkoniyatlar mujassam. Bundan oqilona foydalangan Nilufar Emazarova ham turmush o'rtog'i bilan maslahatlashib, farzandiga kichik sex tashkil etib berdi. Ular bugun do'konlarga chips yetkazib bermoqda. Yana bir ishlabarmon Ulash Shomiyevaning esa ro'mol ishlab chiqaruvchi 3 ta kichik korxonasi bor. Avvaliga mahalladagi bo'sh turgan binoni auksion orqali 5 yil muddatga shartnoma asosida olib ish boshlagan tadbirkor ayol hozir faoliyatini yanada kengaytirgan.

Tadbirkorlik uchun imkoniyatlar yaratilgan ekan, bundan samarali foydalanish zarur, — deydi Ulash Shomiyeva. — O'tgan yili olti kishi bilan ishlardim, bu yil ishchi-xodimlar soni 40 nafarga yetdi. Imtiyozli kredit va subsidiyalar asosida tikuv mashinalari va boshqa



zarur texnikalar xarid qildik. Shunga yarasha ishlab chiqarish hajmi ham, daromadimiz ham oshdi. Hozir bir oyda 50 mingtagacha mahsulot tayyorlaymiz va yurtimizning barcha hududlariga yetkazib beramiz.

Darhaqiqat, insonning ikki muammosi hal etilganida, ya'ni doimiy daromadli ish va turar joy bilan ta'minlansa, hayotidan rozi bo'lib, yashash va mehnat qilishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. Qiziltepa tumanida bunoyd etilayotgan

"Yangi O'zbekiston" massivi ana shunday minglab xonadonlarga quvonch bag'ishlayapti. Hududda ko'p qavatli uylar, maktab, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy poliklinika, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalar, istirohat bog'lari, ichimlik suv, tabiiy gaz, elektr, issiqlik ta'minoti obyektlari, kanalizatsiya tarmog'i, massiv ichki yo'llari qurilishi davom etmoqda.

Tumanimizning Malikobod hududidan 2022-2026-yillarda 20 gektar yer maydoni ajratilib, "Yangi O'zbekiston" massivi loyihasi ishlab chiqilgan. Bu hududda 53 ta ko'p qavatli uy va infratuzilma obyektlari qurilishi ko'zda tutilgan. Ayni vaqtda loyihaning birinchi bosqichida 200 xonadonga mo'ljallangan 8 ta 5 qavatli uylar qurilib, 180 egalariga topshirildi. Bundan tashqari, 100 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaviy poliklinika faoliyatini boshladi. Ikkinchi bosqichida joriy yilda yettita 7 va

9 qavatli uylar, 990 o'rinni maktab qurilishi boshlanishi arafasida, — deydi Qiziltepa tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i Farhod Qurbonov.

Tumandagi boshqa mahallalarda ham infratuzilmani yaxshilash ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bu aholiga qulay yashash muhitini yaratish bilan bir qatorda, hududlar qiyofasiga ham ko'rk bag'ishlayotir. Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash ham dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, tuman markazidan olish, ichimlik suv tarmog'i yetib bormagan hududlarga 12,5 kilometrlik yangi tarmoq tortildi.

Har bir yo'nalishda ilg'or qiziltepaliklar qishloq xo'jaligi sohasidagi yutuqlari bilan ham e'tirofga loyiq. Ayniqsa, g'alla va paxta yetishtirishdagi jonbozliklari salmog'i keng. Joriy yilning mart oyida tuman fermerlari 110 dan ortiq yirik va o'rta hajmdagi qishloq xo'jaligi texnikalari, jumladan, 8 ta o'rmon kombayni sotib oldi. Bu kabi yirik xaridlar natijasida g'alla o'rini mavsumida 14 kun ichida fidoyi fermerlar 25 ming tonnadon ortiq g'alla hosilini yig'ib olishga erishdi.

Aholi turmush sharoitini yaxshilash, qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirish, xalqni turar joy hamda ish bilan ta'minlash, sifati tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha tumanda tizimli ishlar olib borilmoqda. Bularning barchasiga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, hududda keng ko'lmda qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali erishish mumkin. Bu islohotlar Qiziltepa tumanida yanada namoyon bo'lib, xalq davlatdan rozi, turmushidan mamnun yashamoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

